

**IBN AJRRUM VA IBN HISHOM AL-ANSORIY ASARLARIDA ISM
KATEGORIYASINING TALQINI: TA'LIMIY VA GRAMMATIK YONDASHUVLAR
QIYOSI**

D.E. Normurodova

Yangi asr universiteti

70230101- Lingvistika (sharq tillari) yo'nalishi magistranti.

dilnavoz0515@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19200219>

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab nahv ilmining ikki muhim manbasi — Ibn Ajrrumning *al-Ajurrumiyya* matni va unga tayangan sharh an'anasi hamda Ibn Hishom al-Ansoriyning *Qotradun-nada wa ball as-sada* asarida ism kategoriyasining talqini tahlil qilinadi.

Tadqiqotda ismning belgilari, i'rob bilan bog'liqligi, ma'rifa va nakira, mu'rab va mabniy, sintaktik vazifalari hamda ularni o'qitish usuli qiyoslangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, *Ajrumiya* an'anasi boshlang'ich ta'lim uchun qulay, ixcham va sodda modelni bersa, *Qotradun-nada* shu tayanchni chuqurlashtiradigan, dalil va tahlilga ko'proq tayangan o'rta bosqich grammatik manba sifatida namoyon bo'ladi. Har ikki asar bir xil nahviy an'anaga mansub bo'lsa-da, ism kategoriyasini yoritishdagi bayon darajasi, ichki tasnifi va metodik maqsadi bilan farqlanadi.

Kalit so'zlar: arab nahvi, ism kategoriyasi, Ibn Ajrrum, Ibn Hishom al-Ansoriy, *al-Ajurrumiyya*, *Qotradun-nada*, i'rob, ma'rifa, nakira.

Annotation. This article examines the interpretation of the noun category in two important sources of the Arabic grammatical tradition: Ibn Ajrrum's *al-Ajurrumiyya* and its commentary tradition, and Ibn Hisham al-Ansari's *Qatr al-Nada wa Ball al-Sada*. The study compares the markers of the noun, its relation to inflection, definiteness and indefiniteness, declinable and indeclinable forms, syntactic functions, and methods of teaching these topics. The results show that the *Ajurrumiyya* tradition provides a concise, simple, and effective model for beginners, whereas *Qatr al-Nada* represents a more analytical and evidence-based grammatical source for intermediate learners. Although both works belong to the same grammatical tradition, they differ in depth of presentation, internal classification, and pedagogical purpose.

Keywords: Arabic grammar, noun category, Ibn Ajrrum, Ibn Hisham al-Ansari, *al-Ajurrumiyya*, *Qatr al-Nada*, inflection, definiteness, indefiniteness.

KIRISH

Arab nahv ilmi tarixida ayrim asarlar faqat grammatik qo'llanma bo'lib qolmay, butun bir ta'limiy an'anani shakllantirgan. Shunday manbalardan biri Ibn Ajrrumning *al-Ajurrumiyya* asari bo'lib, u arab dunyosida asrlar davomida boshlovchi talabalar uchun asosiy nahv matnlaridan biri sifatida foydalanib kelingan. Ibn Ajrrum arab nahv ilmining yirik vakillaridan biri bo'lib, uning mazkur asari qisqa hajmi, sodda bayoni va qoidalarni bosqichma-bosqich berishi bilan ajralib turadi. Shu sababli *al-Ajurrumiyya* nahvni o'rganishning kirish bosqichidagi tayanch manba sifatida qadrlanadi.

Ibn Hishom al-Ansoriy esa arab grammatik tafakkurining eng yetuk namoyandalaridan biri hisoblanadi. Uning *Qotradun-nada wa ball as-sada* asari nahv ilmining muhim masalalarini, xususan ism kategoriyasini, nisbatan kengroq va tahliliyroq tarzda yoritadi.

Bu asar o'rta bosqichdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda grammatik qoidalar faqat qisqa shaklda berilmay, balki ularning ichki bog'liqligi, sintaktik vazifasi va funksional jihatlari ham ko'rsatib beriladi.

Mazkur maqolaning mavzusi — "Ibn Ajrrum va Ibn Hishom al-Ansoriy asarlarida ism kategoriyasining talqini: ta'limiy va grammatik yondashuvlar qiyosi" — arab nahv merosida bir xil grammatik hodisaning ikki turli ta'limiy va nazariy ko'rinishda qanday yoritilganini ochib berishga qaratilgan.

Ushbu mavzu orqali ism kategoriyasining boshlang'ich va chuqurlashtirilgan talqini, shuningdek, bu ikki yondashuvning arab tili grammatikasini o'qitishdagi ahamiyati aniqlanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — ushbu ikki manbada ism kategoriyasining talqinini qiyosiy tahlil qilish, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlash hamda arab tili grammatikasini o'qitishdagi metodik ahamiyatini ko'rsatishdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqot materiali sifatida Ibn Ajrrumning *al-Ajurrumiyya* matni, unga yozilgan sharhlar, xususan *al-Mumti' fi sharh al-Ajurrumiyya*, shuningdek Ibn Hishom al-Ansoriyning *Sharh Qatr al-Nadā wa-Ball al-Şadā* asari tanlandi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tahliliy va matnshunoslik metodlaridan foydalanildi.

Qiyoslash quyidagi mezonlar asosida olib borildi:

1. ismning ta'rifi va tanituvchi belgilari;
2. ismning i'rob bilan bog'liqligi;
3. ismning ichki tasnifi;
4. ismning gapdagi sintaktik vazifalari;
5. qoidalarni berish usuli va o'quvchiga moslashtirish darajasi.

Mazkur metodik yondashuv ism kategoriyasini faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki real grammatik tizim va ta'limiy model doirasida baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Ajrumiya an'anasida ism kategoriyasi, avvalo, tanituvchi grammatik birlik sifatida beriladi. Unda ismning belgilari sifatida tanvin, "al-" artikli va jarr qabul qilishi ko'rsatiladi. Bunday yondashuv boshlovchi uchun juda qulay, chunki u avval so'zni tashqi belgisi orqali tanib oladi. Masalan, *kitābun*, *ar-rajulu*, *fī al-bayti* kabi birliklar ismni ajratishga xizmat qiladi.

Qotradun-nadada esa ismning belgilari faqat tashqi shakl bilan cheklanmaydi. Ibn Hishom ismni sintaktik vazifasi, xususan u haqida xabar berish mumkinligi bilan ham tushuntiradi. Bu jihat uning yondashuvi Ajrumiyaga nisbatan chuqurroq ekanini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, *Qotradun-nadada* ismning ichki tasnifi kengroq yoritiladi: ma'rifa va nakira, zamir, alam, ism al-ishora, ism al-mawsul, mudof, mu'rab va mabniy shakllar alohida ko'rib chiqiladi.

I'rob masalasida ham sezilarli farq kuzatiladi. Ajrumiyada i'robning tayanch alomatlari beriladi, ammo Ibn Hishom bu tizimni al-asmā' as-sitta, muthannā, jam' al-mudhakkar as-sālim, mā lā yanşarif kabi murakkabroq shakllar bilan boyitadi. Bu esa *Qotradun-nadaning* grammatik qamrovi kengroq ekanini ko'rsatadi.

Har ikki asarda ham ism gapning asosiy sintaktik markazi sifatida talqin qilinadi. Biroq Ajrumiya bu vazifani qisqa va umumiy ko'rinishda bersa, Ibn Hishom mu'tado-xabar, نواس, fa'il, maf'ul, munādā, tamyiz, hāl va tawābi' doirasida ismning turli funksiyalarini batafsil ochadi.

DISKUSSIYA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Ajrumiya an'anasi va *Qotradun-nada* o'rtasidagi asosiy farq nazariyaning o'zida emas, balki uni taqdim etish usulidadir. Ajrumiya boshlovchi o'quvchi uchun tayanch model beradi. Unda qoidalar qisqa, ravshan va yod olishga qulay. Bu usul grammatikani o'zlashtirishning ilk bosqichi uchun ayniqsa samaralidir.

Ibn Hishom esa ayni shu tayanch grammatik bilimni rivojlantiradi. U qoidani nafaqat aytadi, balki uni izohlaydi, boshqa boblar bilan bog'laydi, grammatik mantiqni ochadi. Shu bois *Qotradun-nada* o'quvchini qoidani yodlash bosqichidan qoidani tushunish va tahlil qilish bosqichiga olib chiqadi.

Bu jihatdan ikki asar bir-biriga zid emas. Aksincha, ular bir xil nahviy ta'limning ikki ketma-ket bosqichini ifodalaydi. Ajrumiya — kirish bosqichi, *Qotradun-nada* — chuqurlashtiruvchi bosqich. Ayniqsa ism kategoriyasi misolida bu ketma-ketlik yaqqol seziladi: avval ismning belgilari va asosiy i'rob alomatlari beriladi, keyin esa uning murakkab ichki tasnifi va sintaktik vazifalari ochiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi:

Birinchidan, Ajrumiya an'anasida ism kategoriyasi boshlovchi uchun qulay, sodda va tayanch grammatik model sifatida yoritiladi. Undagi asosiy maqsad — ismni tanitish va uning eng zarur grammatik belgilarini o'rgatish.

Ikkinchidan, Ibn Hishom al-Ansoriyning *Qotradun-nada* asari ism kategoriyasini ancha kengroq va tahliliyroq shaklda yoritadi. Unda ismning ichki tasnifi, i'rob bilan aloqasi, sintaktik vazifalari va grammatik mantiqi ko'proq ochib beriladi.

Uchinchidan, har ikki manba bir xil nahviy an'anaga mansub bo'lsa-da, didaktik vazifasi bilan farqlanadi. Ajrumiya kirish bosqichidagi tayanch manba bo'lsa, *Qotradun-nada* grammatik tafakkurni rivojlantiruvchi o'rta bosqich manba sifatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, ism kategoriyasini to'liq tushunish uchun bu ikki manbani ketma-ket va uyg'un tarzda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv arab tili grammatikasini o'qitishda ham nazariy, ham amaliy jihatdan samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. العلمية الكتب دار: بيروت — الأجرومية المقدمة. الصنهاجي داود بن محمد بن محمد، أجروم ابن. 2003.
2. المتميز الناشر: الرياض — الأجرومية شرح في الممتع. مطر بن سالم بن مالك، المهذري. 2018.
3. العلمية الكتب دار: بيروت — الصدى وبل الندى قطر شرح. يوسف بن الله عيد، الأنصاري هشام ابن. 1996.
4. Samah S., Benguellil H. Educational Grammar in Al-Ajrumiyya Text // *ZAULI*. — 2025. — Vol. 6. — No. 10.
5. Karim S. N. Features of the Educational Curriculum of Ibn Hisham Al-Ansari in His Grammatical Abbreviations // *Journal of Tikrit University for Humanities*. — 2023. — Vol. 30. — No. 5/1.
6. Versteegh K. **The Arabic Language**. — Edinburgh: Edinburgh University Press, 2014.
7. Owens J. **Early Arabic Grammatical Theory: Heterogeneity and Standardization**. — Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1990.
8. Ryding K. C. **A Reference Grammar of Modern Standard Arabic**. — Cambridge: Cambridge University Press, 2005.